

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-1]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li
Chirchiq davla pedagogika universiteti dotsenti

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING MA'NAViy-AXLOQIY QIYOFASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish jarayoniga e'tibor qaratilgan. Ma'naviy-axloqiy qiyofa o'qituvchining axloqiy fazilatlarini, shaxsiy namunasi va kasbiy etikasi orqali ta'lim jarayonida yosh avlodga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin etilgan. Maqolada ta'lim jarayonida o'qituvchining fasilitator, mentor va tyutor sifatidagi roli, axloqiy yetakchilik, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi sifatlar tahlil qilingan. Shuningdek, Sharq pedagogikasidagi an'analar va zamonaviy ta'lim yondashuvlarining uyg'unlashuvi asosida tarix o'qituvchisining qiyofasini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Tarix o'qituvchisi, ma'naviy-axloqiy qiyofa, axloqiy yetakchilik, fasilitator, mentor, tyutor, pedagogik mahorat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy tamoyillar.

Ахмаджанов Данир Бахтиер углы
Доцент Чирчикского государственного педагогического университета

ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫЙ ОБРАЗ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ИСТОРИИ

Аннотация. В данной статье основное внимание уделено процессу формирования духовно-нравственного образа будущего учителя истории. Морально-нравственный имидж трактовался как один из основных факторов, оказывающих положительное влияние на подрастающее поколение в процессе воспитания через моральные качества педагога, личный пример и профессиональную этику. В статье анализируется роль учителя как фасилитатора, наставника и наставника в образовательном процессе, такие качества, как моральное лидерство, патриотизм и социальная ответственность. Также даны методические рекомендации по развитию образа учителя истории на основе сочетания традиций восточной педагогики и современных образовательных подходов.

Ключевые слова: учитель истории, духовно-нравственный имидж, нравственное лидерство, фасилитатор, наставник, тьютор, педагогическое мастерство, национальные ценности, общечеловеческие принципы.

Akhmadjanov Daniyar Bakhtiyar ugli
Associate professor of Chirchiq state Pedagogical University

SPIRITUAL AND MORAL IMAGE OF THE FUTURE HISTORY TEACHER

Annotation. This article focuses on the process of forming the spiritual and moral image of the future history teacher. The spiritual and moral image has been interpreted as one of the main factors that positively affect the younger generation in the educational process through the moral qualities, personal example and professional ethics of the teacher. The article analyzes such qualities as the role of the teacher as a facilitator, mentor and tutor in the educational process, moral leadership, patriotism and social responsibility. Methodological recommendations were also made on the development of the image of a history teacher based on the harmonization of traditions and modern educational approaches in eastern pedagogy.

Keywords: history teacher, spiritual and moral image, moral leadership, facilitator, mentor, tutor, pedagogical skill, national values, universal principles.

Ma'naviy-axloqiy qiyofa insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotida axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni aks ettiruvchi hususiyatlar majmuasidir. Pedagogik nuqtai nazardan, bu tushuncha o'qituvchining shaxsiy namunalarini, xulq-atvori, dunyoqarashi va o'z kasbiy faoliyatida axloqiy tamoyillarga amal qilishi bilan belgilanadi.

Ma'naviy-axloqiy qiyofa ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan ta'sirchanligini ta'minlaydi. Pedagogik talqinga ko'ra, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi uning ichki madaniyati, ma'rifatga intilishi, axloqiy sifatlarini va jamiyat oldidagi mas'uliyati bilan bog'liqdir. Ma'naviy-axloqiy qiyofa nafaqat shaxsiy tarbiya natijasi, balki ta'lim jarayonida ustoz va jamiyat

ta'siri bilan ham shakllanadi. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasi yosh avlodga milliy qadriyatlarni singdirish, ularda vatanparvarlik va adolatparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchi qiyofasining ta'lim va tarbiyadagi o'rniga aniqlik kiritish tadqiqotimiz mantig'idan kelib chiqadi. Bo'lajak o'qituvchi ta'lim va tarbiya jarayonining asosiy ishtirokchisi sifatida jamiyatning ma'naviy va intellektual rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning shaxsiy qiyofasi nafaqat o'quvchilarning ta'lim sifatini, balki ularning axloqiy-ruhiy kamolotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda o'qituvchining ma'naviy-axloqiy qiyofasi yosh avlodga Vatan tarixi, milliy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatni singdirishda muhim ahamiyatga ega. Uning qiyofasi o'quvchilarda tarixiy voqealarni to'g'ri talqin qilish, madaniy merosga hurmat va vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchi ta'lim va tarbiya jarayonining markaziy figurasi sifatida jamiyatning ma'naviy va intellektual rivojlanishiga bevosita ta'sir o'tkazadi. O'qituvchi nafaqat ma'lumot yetkazuvchi, balki tarbiyachi, yetakchi va yosh avlodni jamiyatga moslashtiruvchi shaxs sifatida ham e'tiborga loyiqdir. Uning shaxsiy qiyofasi, axloqiy-ruhiy fazilatlar va pedagogik mahoratlari o'quvchilarda nafaqat bilim, balki yosh avlodning hayotga bo'lgan munosabati, qadriyatlari va kelajakka yo'naltiruvchi dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining qiyofasi to'g'ri shakllangan bo'lsa, u yosh avlodga nafaqat ta'lim sifatida, balki shaxsiy namuna va kasbiy etika orqali ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

shaxsiy namunaning ahamiyati shundaki, o'qituvchi o'zining axloqiy-ruhiy sifatlarini, didi va xulq-atvori orqali o'quvchilar uchun jonli namuna bo'lib xizmat qiladi. Uning faoliyati o'quvchilarda odob-axloq qoidalari va ijtimoiy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi;

kasbiy etikaning ta'siri o'qituvchi o'z ma'naviy qiyofasi orqali kasbiy etika talablariga rioya qilishi va bu talablar unga o'quvchilar bilan muloqotda adolatli, xolis va insonparvar bo'lishini taqozo etadi.

O'qituvchi o'zining ma'naviy-axloqiy qiyofasi orqali ta'lim jarayonida bir vaqtning o'zida fasilitator, mentor va tyutor sifatida faoliyat olib boradi. Ushbu rollar o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini, pedagogik mahoratlari va axloqiy yetakchilik qobiliyati bilan mustahkamlanadi. Quyida o'qituvchining fasilitator, mentor va tyutor sifatidagi rollariga to'xtalib o'tamiz.

1. O'qituvchi – fasilitator. Fasilitator sifatida o'qituvchi ta'lim jarayonining boshlovchisi va yo'naltiruvchisi hisoblanadi. U ta'lim jarayonini shunchaki bilim yetkazishdan faol o'rganish jarayoniga aylantiradi.

Fasilitatorning roli: tarix o'qituvchisi o'quvchilarni milliy va xalqaro tarixiy voqealarni o'rganish jarayonida ishtirok etishga undaydi. Masalan, turli tarixiy voqealarni

tahlil qilish uchun guruhli muhokamalar yoki interaktiv o'yinlar uyushtirishi mumkin.

Ma'naviy-axloqiy qiyofaning ta'siri: o'qituvchining xolisligi va adolatli munosabati o'quvchilarda tarixiy voqealarga ob'yektiv yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy yuksakligi uning ta'lim jarayonidagi ta'sirchanligini oshiradi.

2. O'qituvchi – mentor. Mentor sifatida o'qituvchi shogirdlarga yo'naltiruvchi va maslahatchi bo'ladi. Bu rol, ayniqsa, o'quvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Mentoring roli: mymentor sifatida o'qituvchi tarixiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, o'quvchilarni tadqiqotlarga jalb qiladi va ularning fikr yuritish quvvatini rivojlantiradi. Masalan, mahalliy tarixiy merosni o'rganish bo'yicha loyihalar tashkil etishi mumkin.

Ma'naviy-axloqiy qiyofaning ta'siri: mymentor o'qituvchining shaxsiy yuksakligi va insoniyligi o'quvchilarga o'z qobiliyatlariga ishonch uyg'otadi. Uning xolis maslahatlari yosh avlodning kasbiy yo'nalishini aniqlashga yordam beradi.

3. O'qituvchi – tyutor. Tyutor sifatida o'qituvchi o'quv jarayonida o'quvchilarni individual tarzda qo'llab-quvvatlovchi va ularning shaxsiy rivojlanishini nazorat qiluvchi shaxsdir.

Tyutorning roli: tyutor o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi individual ehtiyojlarini qondirish va ularga yordam berish uchun mas'uldir. U o'quvchilarga manbalarni tahlil qilish, tadqiqot ishlarini tashkil qilish va ta'lim jarayonida to'g'ri yo'nalish berishda ko'maklashadi.

Ma'naviy-axloqiy qiyofaning ta'siri: tyutor sifatida o'qituvchining mehribonligi va bag'rikengligi o'quvchilarning o'quv jarayoniga ishonchini mustahkamlaydi. Uning xolis yondashuvi har bir o'quvchining qobiliyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi.

O'qituvchi o'z darslari orqali yosh avlodda adolat, vatanparvarlik va jamoaviy mas'uliyat hissini tarbiyalaydi. Bizningcha, bo'lajak tarix o'qituvchisida ma'naviy-axloqiy qiyofaning ta'sirchan bo'lishi uchun quyidagi xususiyatlar muhim ahamiyatga ega:

1.Intellektual quvvat: o'qituvchi chuqur bilimga ega bo'lishi va fanni zamonaviy yondashuvlar bilan tushuntira olishi lozim.

2.Axloqiy va ma'naviy yuksaklik: o'zining shaxsiy fazilatlarini bilan jamoatchilik me'yorlariga sodiq shaxs sifatida namoyon bo'lishi kerak.

3.Pedagogik mahorat: o'qituvchi o'quvchilarga fanni tushunarli va qiziqarli tarzda yetkaza olishi, ular bilan ishonchli aloqani ta'minlay olishi lozim.

4.Ijtimoiy mas'uliyat: jamiyatning barqarorligi va rivoji uchun yoshlarni faol jamoatchilikka tayyorlay oladigan yetakchi sifatida namoyon bo'lishi.

Bo'lajak o'qituvchining qiyofasi ta'lim va tarbiya jarayonining markaziy omillaridan biri bo'lib, u yosh avlodning shaxsiy, ma'naviy va axloqiy rivojlanishini belgilaydi. Uning shaxsiy fazilatlarini, pedagogik mahoratlari va axloqiy yuksakligi jamiyatda ta'lim sifati va madaniyat darajasini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarning qiyofasini shakllantirishda barcha bosqichda kompleks yondashuv zarur.

Tarix o'qituvchisining shaxsiy qiyofasi uning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini bilan belgilanadi. Ushbu fazilatlar nafaqat ta'lim sifati oshirishga, balki o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Quyida tarix o'qituvchisi uchun muhim bo'lgan asosiy ma'naviy-axloqiy fazilatlarini keltiramiz.

1. Vatanparvarlik. O'qituvchi o'zining vatanga bo'lgan mehri va hurmatini o'quvchilarga ko'rsata olishi lozim. Vatan tarixi, madaniy meros va milliy qahramonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni faxr bilan yetkaza bilish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi.

2. Tadqiqotchilik. Tarixiy hujjatlar, manbalar va voqealarni tahlil qilishda adolatli va xolis yondashuvni namoyon qilish o'qituvchining muhim xususiyatidir. Bu ko'nikma o'quvchilarga tanqidiy fikrlashni o'rgatishga yordam beradi.

3. Axloqiy yetakchilik. O'qituvchi yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, ularni adolat, insoniylik, halollik kabi qadriyatlarga yo'naltiruvchi yetakchi bo'lishi lozim. Uning shaxsiy xulqi o'quvchilar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

4. Insonparvarlik. O'qituvchi o'z o'quvchilariga nisbatan mehribon, tushunuvchan va sabrli bo'lishi kerak. U insonparvarlik tuyg'usini shakllantirish orqali o'quvchilarning ijtimoiy munosabatlarida ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Ijtimoiy mas'uliyat. O'qituvchi jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglaydigan shaxs bo'lishi lozim. U o'quvchilarni jamiyat manfaatlarini himoya qilish, birdamlik va ijtimoiy mas'uliyatga yo'naltirishi kerak.

6. Adolatparvarlik. Tarix o'qituvchisi barcha holatlarda adolatli, xolis va haqqoniy bo'lishi zarur. Uning har qanday masaladagi odilona munosabati o'quvchilarda ushbu sifatni shakllantirishga yordam beradi.

7. Tinchlikparvarlik. Tarix o'qituvchisi o'quvchilarga tinchlikni saqlashning ahamiyatini o'rgatishi, turli millat va madaniyatlar o'rtasida hurmat va hamjihatlik tuyg'ularini tarbiyalashi lozim.

8. Ilmiylik. O'qituvchi ta'lim jarayonida aniqlik, ishonchlilik va ilmiy yondashuvga amal qilishi kerak. Ilmiylik o'quvchilarda bilimlarni mantiqiy tushunish va tahlil qilish qobiliyatini oshiradi.

9. O'z-o'zini takomillashtirish. O'qituvchi o'z bilimlari va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirishi zarur.

Uning shaxsiy kamolotga intilishi o'quvchilarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

10. Hurmat va bag'rikenglik. O'qituvchi barcha o'quvchilarga hurmat bilan yondashishi va ularning shaxsiy qiziqishlari, xususiyatlari va iste'dodlarini tan olishi lozim. Bag'rikenglik tuyg'usi o'quvchilarda turli fikr va qarashlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantiradi.

11. Kommunikativlik. O'qituvchi o'quvchilar bilan samarali muloqot qila olishi, ularni o'quv jarayoniga jalb qilish uchun psixologik yondashuvlarni ishlata bilishi kerak.

12. Madaniy va tarixiy hurmat. O'qituvchi madaniy va tarixiy qadriyatlarni chuqur tushunishi va ularni o'quvchilarga yetkaza bilishi kerak. Bu qadriyatlar yoshlarda o'z tarixiga va madaniyatiga hurmat tuyg'usini shakllantiradi.

13. Rahbarlik qobiliyati. O'qituvchi o'quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb etib, ularni tashkilotchilik qobiliyati bilan ruhlantirishi kerak. Uning rahbarlik sifati o'quvchilarni jamiyatda yetakchi bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

Bu fazilatlar o'qituvchining shaxsiy qiyofasini shakllantirishda va ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu fazilatlarini rivojlantirish orqali o'qituvchi yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalay oladi.

Axloqiy qiyofa o'qituvchining kasbiy etikasi bilan chambarchas bog'liqdir. Kasbiy etika ta'lim jarayonida o'qituvchining odob-axloqi, o'quvchilarga munosabati va ishga yondashuv tamoyillarini o'z ichiga oladi. Axloqiy qiyofa kasbiy etikaning asosiy omillaridan biri bo'lib, o'quvchilarning o'qituvchiga ishonchini ta'minlaydi va ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'mak beradi.

Axloqiy qiyofaning kasbiy etika bilan bog'liq asosiy jihatlari:

1. Hurmat va bag'rikenglik: O'qituvchi o'quvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, ularning shaxsiy xususiyatlarini tushunish va inobatga olishi zarur.

2. Shaffoflik va adolat: Ta'lim jarayonida har bir o'quvchiga teng munosabat ko'rsatish, xolis va adolatli qarorlar qabul qilish muhimdir.

3. Ishonchlilik: O'qituvchi o'z so'zi va harakatlari bilan o'quvchilarning ishonchini qozonishi kerak. Uning qiyofasi o'quvchilar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

4. Professionallik: Axloqiy qiyofa professional yondashuv bilan mustahkamlanadi. O'qituvchi o'z bilimlarini doimiy ravishda oshirib borishi, yangi metodlardan foydalanishi zarur.

5. Ma'naviy yetakchilik: O'qituvchi axloqiy qiyofasi orqali jamoatchilikda ham o'rnak bo'lish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Uning kasbiy va shaxsiy jihatlari jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy qiyofa ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchining shaxsiy namunalari, axloqiy fazilatlari va kasbiy etikasi bilan belgilanadi. Ayniqsa, tarix o'qituvchisi uchun bu qiyofa o'quvchilarning ma'naviy va intellektual rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Axloqiy qiyofa kasbiy etikaning bir qismi sifatida jamiyatda barqarorlik va insoniylik tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan.

Tarix fanini o'qitish nafaqat faktlarni yetkazish, balki o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirish jarayonidir. Bunda bo'lajak tarix o'qituvchisining shaxsiy fazilatlari muhim o'rin tutadi. Uning vatanparvarlik, adolatparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lishi o'quvchilarda jamiyat uchun foydali va ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan. Quyida tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy fazilatlari mazmunini umumiy tarzda ko'rib chiqamiz.

1.Vatanparvarlik va tarixiy merosga hurmat. Tarix o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri yosh avlodga vatanga bo'lgan mehrni, milliy tarix va madaniy merosga hurmatni shakllantirishdir. Bunda o'qituvchining shaxsiy vatanparvarligi asosiy ahamiyat kasb etadi. Vatanparvarlik faqatgina Vatanni sevishdan iborat emas, balki uning qadriyatlari, tarixi va madaniyatiga chuqur hurmat bilan yondashishdir. Tarix o'qituvchisi milliy tarixning eng muhim voqealarini o'quvchilarga ilmiy asosda tushuntirishi, ularda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishi kerak.

2.Adolatparvarlik va insoniylik qadriyatlari. Tarix o'qituvchisi axloqiy yuksaklikka ega bo'lgan adolatli shaxs sifatida namoyon bo'lishi lozim. U adolatni faqat ta'lim jarayonida emas, balki tarixiy voqealarni talqin qilishda ham namoyon qilishi kerak.

3.Ijtimoiy mas'uliyat va jamoatchilikka sodiqlik. Tarix o'qituvchisi o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi shaxs sifatida ish olib boradi. Uning vazifasi jamiyat oldidagi burchni tushuntirish va faol jamoatchilikka yo'naltirishdir. Ijtimoiy mas'uliyat shaxsning jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yish qobiliyatidir. Jamoatchilikka sodiqlik esa umumiy maqsadlarga xizmat qilish va birdamlikni ifoda etadi. O'qituvchi o'quvchilarda jamiyatga hurmat tuyg'usini tarbiyalashi, ularni ijtimoiy faoliyatlarga jalb etishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy qiyofa insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi barqaror rivojlanishning asosiy tarkibiy qismidir. Unga ta'sir etuvchi omillar turli ijtimoiy va ta'lim tizimiga bog'liq bo'lib, ular insonning ma'naviy va axloqiy

jihatdan kamolotga yetishini belgilaydi. Quyida ushbu omillarni ko'rib chiqamiz.

Oilaning ta'siri. Oila insonning ilk tarbiya manbai sifatida uning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishiga asos soladi. Bolaning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlari va dunyoqarashi avvalo oila muhitida shakllanadi. Jan-Pol Sartr ta'kidlaganidek, *insonning birinchi tarbiyachisi – uning oilasidir, va oila uning hayotdagi birinchi jamoati.*⁷

Ta'lim muassasasining ahamiyati. Ta'lim muassasalari bu jarayonni davom ettiruvchi va mustahkamlovchi institut hisoblanadi. Maktablar bolalardagi shaxsiy xususiyatlarni yanada boyitib, ma'naviy va axloqiy tarbiyani chuqurlashtiradi. Hovard Gardner ta'kidlaydi, *Ta'lim muassasalari insonning ma'naviy kamolotini rag'batlantiruvchi asosiy jamiyat institutlaridan biridir.*⁸

Jamoatchilik ta'siri. Jamiyat insonning axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Urush, tinchlik, ijtimoiy birdamlik kabi jarayonlar insonning dunyoqarashini boyitadi. Antonio Gramsci yozganidek, *jamiyatdagi har bir ijtimoiy hodisa insonning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ta'sir qiladi.*⁹

Madaniyatning roli. Jamiyat madaniyati, milliy an'analar va urf-odatlar insonning axloqiy qadriyatlarini shakllantiradi. Masalan, Sharq madaniyatida jamoaviylik va oila qadriyatlari muhim o'rin tutadi.

Ommaviy axborot vositalarining ta'siri. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari insonning ma'naviy qiyofasiga salbiy va ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ommaviy madaniyatning salbiy jihatlari qarshi ma'naviy tarbiya orqali kurashish juda muhim.

Yoshlarda tinchlikparvarlik, adolat va bag'rikenglik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. L.Tolstoy ta'kidlaganidek, *"Axloqiy tarbiya milliy madaniyatni boyitib, insonni umuminsoniy qadriyatlarga yaqinlashtiradi".*¹⁰

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, ma'naviy-axloqiy qiyofa ta'lim jarayonining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, u nafaqat o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligi uchun ham muhimdir. Tarix o'qituvchisining axloqiy fazilatlari yosh avlodning ijtimoiy mas'uliyatli, axloqiy yuksak va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida zamonaviy usullar, shaxsiy namuna va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ustuvor ahamiyatga ega.

⁷ Sartre J.-P. *Being and Nothingness*. – New York: Washington Square Press, 1956. – P. 32.

⁸ Gardner H. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. – New York: Basic Books, 1983. – P. 256.

⁹ Gramsci A. *Prison Notebooks*. – New York: Columbia University Press, 1992. – P. 210.

¹⁰ Толстой Л. О воспитании. – Москва: Издательство литературы, 1910. – С. 45.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. UNESCO. "Global Citizenship Education: Preparing Learners for the Challenges of the 21st Century." – Paris: UNESCO, 2015.
2. Gardner, Howard. *The Disciplined Mind: What All Students Should Understand*. – New York: Simon & Schuster, 2000.
3. Comenius, J.A. *Didactica Magna*. – London: University Press, 1967.
4. Dewey, John. *Democracy and Education*. – New York: Macmillan, 1916.
5. Forobiy A. "Fozil odamlar shahri". – Toshkent: Fan, 2008.
6. Ibn Sino. "Ta'lim va tarbiya to'g'risida". – Buxoro, 1999.
7. Beruniy A. "Qonuniy Mas'udiy". – Qohira: 1998.
8. Freire, Paulo. *Pedagogy of the Oppressed*. – London: Penguin Books, 1996.
9. Vygotsky, L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
10. Tolstoy L.N. **O vospitaniy i obrazovaniy**. – Moskva: Prosvetsheniye, 1975.

A.Jaloldinov.....	513
Bo'lajak pedagoglarda badiiy-tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik modeli.	
M.Qodirova.....	518
O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash usullari.	
N.Valixanova.....	522
Tibbiyot oliy o'quv muassasalarida dalillarga asoslangan o'quv dasturlaridan foydalanishning samaradorligi.	
M.Axmadaliyeva.....	528
Prezident maktabi o'quvchilarining jismoniy rivojlanishining tahlili.	
M.Xamudov.....	531
O'qitish jarayonida intellektual tizimlardan foydalanishning ijtimoiy-psixologik jihatlar.	
B.Abdullayev.....	535
Применение квеста на уроках русского языка для формирования лингвистических компетенций студентов.	
H.Буранова.....	541
Kurashchilarning antropometrik ko'rsatkichlar orqali jismoniy rivojlanishini qiyosiy baholash.	
I.Vardiashvili.....	545
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milly qadriyatlar asosida ekologik tarbiya berishning dolzarbligi.	
U.Ergasheva.....	550
Ta'lim jarayonida ota-onalarning ishtirokiga doir ilmiy tadqiqotlar tasnifi.	
A.Matkarimov.....	553
Tarix fanlarini o'qitishning mavjud metodik tizimi samaradorligini modifikatsiyalash talabi nuqtai nazaridan baholash.	
X.Boymirzayev.....	557
Bino inshootlarni loyihalashda grafik modellar va algoritmlarni ishlab chiqish.	
J.Qosimov, K.Umarova.....	561
Talabalar analitik kompetentligini tibbiyot tarixi fanini o'qitish orqali rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.	
N.Komilov.....	566
Maktabgacha ta'limda frontal faoliyatlarga markazlarni integratsiya qilishning kreativ mexanizmlari.	
D.Asqarova.....	570
Ta'limni rivojlantirishda kreativlikning ahamiyati va uning o'quvchilarning o'qishi va rivojlanishiga ta'siri.	
B.Usarov.....	576
Baholashning zamonaviy texnologiyalari: yuqori sinf o'quvchilari uchun samaradorlik tahlili.	
X.Ergashev.....	579
Bo'lajak tarix o'qituvchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasi.	
D.Axmadjanov.....	583
Sharq allomalarining ilmiy meroslarini yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.	
X.Bobonorov.....	588
Ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etish shakllari va zamonaviy o'quv mashg'uloti komponentlari, mezonlari.	
G.Chinqulova.....	592
Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish mazmuni.	
D.Abdusamiyev.....	598
Kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda bo'lajak pedagoglarga qo'yiladigan talablar tahlili.	
D.Abduraxmonov.....	602
A comparison of academic research and pre-service teacher research.	
D.Sarimsakova.....	606
Differensial yondashuv asosida bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari.	
F.Ahmedova.....	609
Talabalarining texnik fikrlash kompetentini rivojlantirishda smart-texnologiyalardan foydalanishning zarurati.	
M.Eshonqulova.....	613
Ijtimoiy ekologik siyosatning alohida soha sifatida shakllanishining ilmiy-amaliy asoslari.	
R.G'ulomova.....	617
Texnika oliy o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalarini shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlarini samaradorligi.	
J.Obidov.....	621
Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning metodologik jihatlar.	
J.Solijonov.....	625